

O'ZBEK ADABIY TILIDA IMLO VA TINISH BELGILARINI
O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING
YECHIMLARI

Qo'qon universiteti Andijon filiali
Ijtimoiy gumanitar va pedagogika fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (O'ZB) 25_01
Talabasi: Rafiqova Shahzoda Abduhakim qizi
[Tel:+998914930102](tel:+998914930102)

Annotatsiya: Mazkur maqola o'zbek adabiy tilida imlo va tinish belgilarini o'rganish jarayonida uchraydigan muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda, avvalo, imlo qoidalarini o'zlashtirishda uchraydigan fonetik va morfologik qarama qarshiliklar, tinish belgilaridan foydalanishda esa sintaktik birliklarning noto'g'ri talqini hamda uslubiy xatolar kuzatilishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, o'quvchilar, talabalar va hatto ijodkorlar amaliy nutqida imlo hamda tinish belgilariga oid xatolar ko'p uchrashi, buning asosiy sabablari sifatida qoida va amaliyot o'rtasidagi tafovut, metodik yondashuvlarning yetarli emasligi hamda zamonaviy lingvistik texnologiyalarning to'liq qo'llanilmayotgani ta'kidlanadi. Muammolarning samarali yechimi sifatida imlo va tinish belgilarini o'rgatishda interaktiv usullarni joriy etish, elektron darslik va dasturlardan foydalanish, shuningdek, o'quvchilarda yozma nutq madaniyatini shakllantirishning bosqichma-bosqich metodikasini ishlab chiqish taklif etiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek adabiy tili imlo va punktuatsiya qoidalarini chuqurroq o'zlashtirish hamda ularni amaliy nutqda to'g'ri qo'llashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiy tili, imlo, tinish belgisi, punktuatsiya, imlo muammolari, metodika, yozma nutq madaniyati, interaktiv usullar, elektron darslik, lingvistik texnologiyalar.

Annotation: This article is devoted to the analysis of problems encountered in the process of studying spelling and punctuation in the Uzbek literary language and their

solutions. The study, first of all, shows the phonetic and morphological contradictions that occur in the mastering of spelling rules, and the misinterpretation of syntactic units and stylistic errors in the use of punctuation marks. It is also noted that spelling and punctuation errors are common in the practical speech of pupils, students and even creative people, and the main reasons for this are the discrepancy between rules and practice, the inadequacy of methodological approaches and the incomplete use of modern linguistic technologies. As an effective solution to the problems, it is proposed to introduce interactive methods in teaching spelling and punctuation marks, use electronic textbooks and programs, as well as develop a step-by-step methodology for forming a culture of written speech in students. The results of the research will serve to further master the spelling and punctuation rules of the Uzbek literary language and their correct application in practical speech.

Key words: Uzbek literary language, spelling, punctuation, spelling problems, methodology, written speech culture, interactive methods, electronic textbook, linguistic technologies.

Абстрактный: Данная диссертация посвящена анализу проблем, возникающих в процессе изучения орфографии и пунктуации узбекского литературного языка, и путям их решения. В исследовании, прежде всего, показаны фонетические и морфологические противоречия, возникающие при усвоении правил орфографии, неправильная трактовка синтаксических единиц и стилистические ошибки в употреблении знаков препинания. Также отмечается, что орфографические и пунктуационные ошибки часто встречаются в практической речи учащихся, студентов и даже творческих людей, и основными причинами этого являются несоответствие правил практике, неадекватность методических подходов и неполное использование современных лингвистических технологий. В качестве эффективного решения проблем предлагается внедрение интерактивных методов в обучение орфографии и знакам препинания, использование электронных учебников и программ, а также разработка поэтапной методики формирования культуры письменной речи у

учащихся. Результаты исследования послужат дальнейшему освоению правил орфографии и пунктуации узбекского литературного языка и правильному применению их в практической речи. ключевые слова: Узбекский литературный язык, орфография, пунктуация, орфографические проблемы, методика, культура письменной речи, интерактивные методы, электронный учебник, лингвистические технологии.

Kirish

So‘nggi 30 yil (va ayniqsa oxirgi 5-7 yil) davomida o‘zbek tilini isloh qilish yuzasidan ko‘p fikrlar aytilди. Ularning ko‘pchiligi alifbo islohoti mavzusiga atalgan bo‘lsa ham, aslida tilimizning zamon talablariga to‘laroq javob berishiga to‘sqinlik qilayotgan boshqa muammolar ham bor. Men tilshunos emasman va bu yerda bildirgan fikrlarimda filologlar ko‘plab kamchiliklar topishi ehtimoli baland. Ammo ko‘p yillar tilgan doir loyiha ustida ishlash mobaynida duch kelgan va aniqlagan muammolar haqida o‘z qarashlarimni ulashishni ma‘qul topdim. So‘nggi 30 yil (va ayniqsa oxirgi 5-7 yil) davomida o‘zbek tilini isloh qilish yuzasidan ko‘p fikrlar aytilди. Ularning ko‘pchiligi alifbo islohoti mavzusiga atalgan bo‘lsa ham, aslida tilimizning zamon talablariga to‘laroq javob berishiga to‘sqinlik qilayotgan boshqa muammolar ham bor. Men tilshunos emasman va bu yerda bildirgan fikrlarimda filologlar ko‘plab kamchiliklar topishi ehtimoli baland. Ammo ko‘p yillar tilgan doir loyiha ustida ishlash mobaynida duch kelgan va aniqlagan muammolar haqida o‘z qarashlarimni ulashishni ma‘qul topdim. Alifbo — tilimizni sog‘lom o‘sishtan tiyib turgan eng jiddiy muammo ekani hech kimga yangilik emas. Ko‘pchiligimiz alifboni isloh qilish kerakligiga qo‘shilamiz — bahslar uni aynan qanday isloh qilish haqida boryapti xolos. Yangi talqindagi SH va CH harflarini joriy klaviaturalarda kiritish muammosini ham hal qilish mumkin. Bizning Savodxon klaviaturasi dasturidan foydalanganlar yaxshi biladi — birin-ketin bosilgan ikki tugma biz istagan belgini kiritishini oddiy dastur bilan joriy qilish mumkin (masalan, S tugmasidan keyin H tugmasi bosilganda SH tovushi uchun taklif qilinayotgan yangi dumli S belgisi kiritiladigan qilish mumkin). Dasturiy jihatdan bu qanchalik oson hal bo‘ladigan muammo ekanini amalda ko‘rish uchun MS

Word dasturida inglizcha “naive” soʻzini kiritib koʻring — dastur avtomatik undagi i belgisini kerakli ikki nuqtalisiga alishtirib qoʻyadi. Zamonaviy talaffuzda biz H va X tovushlarini farqlamaymiz (odilona oʻylab koʻrgan odam kundalik hayotda ularni farqlab talaffuz qilmasligini biladi). Shunday ekan, bu tovushni faqat H bilan ifodalashni joriy qilish kerak. Bu bilan hamma yoppasiga savodsiz boʻlib qolmaydi — bu harflar maʼno ajratadigan soʻzlar juda kam. Xuddi shu mantiqqa koʻra, tutuq belgisidan ham xalos boʻlish kerak. U bizning tilimizga begona — shuning uchun u qatnashgan (arab tilidan kirgan) soʻzlarni oʻz usulimizda talaffuz qilamiz. Hech birimiz oddiy muloqotda “aʼlo” soʻzini a dan keyin bir toʻxtab olib talaffuz qilmaymiz. Hatto rasmiy nutqlarda ham “manaviyat”, “sanat” yoki “etibor” deyilgani bilan, bular nimani anglatishini hech kim tushunmay qolayotgani yoʻq. Tutuq belgisini biz uchun qanchalik ahamiyatsiz ekanini koʻplab ismlarda (“Sadulla”, “Masuda”, “Mamurjon” va hokazo) undan xalos boʻlganimizning oʻzi ham yaqqol koʻrsatadi. Axir, eng muhim hujjatlarda bu ismlar yoziladi. Tutuq belgisini ifodalash uchun bugun ishlatilayotgan belgi koʻplab texnik muammolar keltirib chiqaradi (dasturchilar buni yaxshi biladi). Shu bois, taklif qilinayotgan islohotlar bu muammoni eʼtiborsiz qoldirgani achinarli. Xulosa. Hozirda maktab oʻquvchilari, talabalarning ham matnlarni yozayotganda tinish belgilarini nooʻrinqoʻllash yoki umuman qoʻllamaslik holatlarini juda koʻp kuzatamiz. Bundan tashqari yozilgan ijodiyish, esse, ish qogʻozlaridagi 70-80% xatoliklar aynan punktuatsion xatoliklar bilan bogʻliq ekanligigaham koʻz yumib boʻlmaydi. Holbuki, hozirda bizning koʻzlarimizdagi ‘linzalar’ faqat imlo bilan bogʻliq masalalarnigina koʻryapti, xolos. Lekin kasal tananing faqat bir aʼzosini davolash bilan maʼlum natijaga erishish mushkul, shu sababdan kichik muammo sifatida qaraladigan bunday dardlarga shifo topilmas ekan, bu tana hech qachon sogʻ boʻlmaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OʻZBEK TILIDA TINISH BELGILARINING OʻZIGA XOSLIGI Radjapova

Nargiza

Bekmuradovna

(

<https://worldlyjournals.com/index.php/wkc/article/download/6353/10051/18703>) 1.

О'zbek tili rivojiga to'sqinlik qilayotgan ba'zi muammolar Javlon Jo'rayev (
<https://savodxon.uz/yangiliklar?raqam=22>)